DORI VOSITALARINI ISTE'MOLCHILARGA YETKAZIB BERISH TIZIMINI OPTIMALLASHTIRISH

Turaev Nodir Tairjanovich
Sharapxodjayeva Xilola Zakhidovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O'zbekiston)
Respublika Ixtisoslashtirilgan Allergologiya va Klinik Immunologiya Ilmiy Amaliy Tibbiyot Markazi (Toshkent, O'zbekiston)

Maqsad. Tadqiqot O'zbekistonda farmatsevtika bozorining hozirgi holatini va dori vositalari bilan ta'minlash tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitida takomillashtirish yo'llarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Usullar. Farmakoekonomik, solishtirma va sotsiologik tahlil usullari, shuningdek intellektual tahlilga asoslangan axborot-kompyuter texnologiyalari qo'llanildi.

Natijalar. So'nggi 27 yil ichida mahalliy farmatsevtika korxonalarining ishlab chiqarish hajmi 14,85 barobarga oshdi. Biroq yurtimizdagi farmatsevtika bozorining atigi 18 foizi mahalliy ishlab chiqaruvchilar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu sababli davlat tomonidan ajratiladigan valyuta mablag'lari faqat O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, brend va original dori vositalarini xarid qilishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bronxial astma, surunkali obstruktiv bronxit kabi kasalliklarda ishlatiladigan ayrim aerozol shaklidagi preparatlar va zamonaviy biologik terapiyada ishlatiladigan preparatlar hali ham mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilmagan.

Xulosa. Davlat budjetidan ajratiladigan cheklangan mablag'larni hisobga olgan holda, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash tizimini yanada optimallashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish zarur. Bu esa o'z navbatida sifatli va arzon dorilarning aholiga yetkazib berilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy ahamiyati

- Aholi va davolash-profilaktika muassasalarini sifatli, samarali va kam nojo'ya ta'sirli dorilar bilan ta'minlashda farmatsevtika siyosatini shakllantirish uchun asos yaratadi.
- Farmatsevtika tarmog'ida xorijiy sarmoyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, hamda ijtimoiy ahamiyatli dorilar ro'yxatini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.